

BUXORO BARQAROR TURIZM OBSERVATORIYASI FAOLIYATINI YO‘LGA QO‘YISH ISTIQBOLLARI

Raupov Shuxrat Soyibovich

Buxoro davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada Buxoro barqaror turizm observatoriyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish istiqbollari belgilash maqsadida, Buxoro shahrining BMT Turizm INSTO mezonlariga muvofiqligi, observatoriyaning maqsadi, vazifalari va tamoyillari, tashkiliy tuzilmasining uch darajali modeli, moliyalashtirish manbalari, yillik xarajatlar va kutilayotgan samaradorlik ko‘rsatkichlari kabi masalalar tadqiq etilgan.

Аннотация: для определения перспектив создания Бухарской обсерватории устойчивого туризма, в данной статье рассматриваются такие вопросы, как соответствие города Бухары критериям ООН по туризму INSTO, цель, задачи и принципы работы обсерватории, трехуровневая модель ее организационной структуры, источники финансирования, ежегодные затраты и ожидаемые показатели эффективности.

Abstract: In order to determine the prospects for establishing the Bukhara Sustainable Tourism Observatory, this article examines issues such as the city of Bukhara's compliance with the UN Tourism INSTO criteria, the observatory's purpose, objectives and principles, the three-tier model of its organizational structure, funding sources, annual costs and expected performance indicators.

Barqaror turizm boshqaruvi asosidagi zamonaviy yondashuvda esa proaktiv monitoring bo‘lishi zarur. Muammolarni yuzaga kelmasdan oldin bashorat qilish va oldini olishga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu zaruratdan kelib chiqib, Buxoro shahrida birinchi “Barqaror turizm observatoriyasi” ni tashkil etishni taklif etdik. Quyida observatoriyaning ilmiy-nazariy asoslari, Buxoroni tanlab olish asoslanishi va tashkiliy tuzilmasini ko‘rib chiqamiz.

“Barqaror turizm observatoriyasi” tushunchasi va BMT Turizmning INSTO (International Network of Sustainable Tourism Observatories) xalqaro tizimi. Barqaror turizm observatoriyasi (BTO) turizm sohasi bo‘yicha tizimli ma‘lumot to‘plash, tahlil qilish, prognozlash va qaror qabul qiluvchilarni axborot bilan ta‘minlash funksiyalarini bajaruvchi doimiy faoliyat yurituvchi ilmiy-amaliy muassasa hisoblanadi. Bu tushuncha BMT Turizmning 2004-yilda tashkil etgan Barqaror turizm observatoriyalari xalqaro tarmog‘i (INSTO) doirasida shakllangan¹³. INSTO tarmog‘ining asosiy g‘oyasi barqarorlik ko‘rsatkichlarini mahalliy darajada muntazam o‘lchash orqali global

¹³ UN Tourism (World Tourism Organization). About INSTO // UN Tourism : [rasmiiy sayt]. — URL: <https://www.untourism.int/sustainable-development/about-insto>

barqaror turizm amaliyotiga hissa qo'shish deb berilgan. Hozirgi kunda INSTO tarmog'ida 30 dan ortiq mamlakat ishtiroki bilan 50 ga yaqin observatoriya faoliyat ko'rsatmoqda (1-rasm)¹⁴. Ular orasida madaniy meros shaharlarida tashkil etilgan observatoriyalar alohida o'rin tutadi. Italiya, Indoneziya, Yaponiyaning ana shunday muvaffaqiyatli observatoriyalarga ega.



1-rasm. INSTO observatoriyalarining dunyo xaritasida joylashuvi

INSTO observatoriyalarining umumiy metodologik asosi barqarorlikning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy o'lchamlari bo'yicha standartlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini qo'llashga asoslanadi. O'zbekiston uchun muhimi shundaki, INSTO metodologiyasi milliy sharoitlarga moslashtirilishi mumkin. Ishlab chiqqan BTRI metodologiyamiz 5 o'lcham va 20 ko'rsatkichdan iborat tizim INSTO talablariga to'liq mos keladi va Buxoro observatoriyasining asosiy monitoring vositasi sifatida xizmat qilishi uchun tayyor qo'llanma hisoblanadi. Bu degani, bizda observatoriyaning metodologik asosi ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan.

O'zbekistonda observatoriyaning qaysi shaharda tashkil etish savoli strategik ahamiyatga ega. Toshkent ko'proq sayyohlik imkoniyatiga ega, Samarqand esa YUNESKO obyektlari bo'yicha boyroq. Biroq bizning tahlillarimiz Buxoroni eng maqbul shahar sifatida aniqlab berdi. Bu tanlovni resurslarni baholash, ROI natijasi va strategik ustuvorliklar natijalari sintezi asosida chiqarilgan xulosaga tayanib taklif qildik. Birinchidan, ROI tahlili bo'yicha Buxoro ROI = 0,72 bu muvozanat zonasining (0,5-1,5) pastki qismida turadi. Samarqand (ROI = 1,07) va Toshkent (ROI = 4,92) bilan solishtirganda Buxoro hali ortiqcha yuklanishga duch kelmagan, lekin muvozanat chegarasiga yaqin. Aynan shu holat observatoriya uchun ideal va proaktiv

¹⁴ UN Tourism (World Tourism Organization). Sustainable Tourism Observatories are Transforming the Sector // UN Tourism. — 2023. — 23 noy. — URL: <https://www.untourism.int/news/sustainable-tourism-observatories-are-transforming-the-sector>



monitoringning zaruriyatini ko'rsatadi. Ikkinchidan, YUNESKO maqomi Buxoro 2 ta YUNESKO obyektiga ega. 1993-yildan "Buxoro tarixiy markazi" (260 dan ortiq tarixiy inshoot) va 2023-yildan "Ipak yo'li: Zarafshon-Qoraqum yo'lagi" transmilliy obyekti. Bu ikki qatlamli meros maqomi obyektlar ustida kuchayib borayotgan turistik yuklamani ilmiy-amaliy nazorat qilishni talab qiladi. Uchinchidan, strategik ustuvorliklar matritsasida ziyorat turizmi "Yulduz" segmenti sifatida aniqlangan. Buxoro Bahouddin Naqshband ziyoratgohi, 7 pirlar, Mir Arab madrasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi bilan bu segmentning asosiy markazi hisoblanadi. Ziyorat oqimining o'sishi kuchli monitoring talab qiladi. 1-jadvalda Buxoroning INSTO mezonlariga muvofiqligi batafsil ko'rsatib berilgan.

1-jadval

Buxoro shahrining BMT Turizm INSTO mezonlariga muvofiqligi¹⁵

Mezon	BMT Turizm INSTO talablari	Buxoro ko'rsatkichi	Mos kelishi	Asoslanish manbai
YUNESKO Jahon merosi maqomi	Kamida 1 ta YUNESKO obyekti bo'lishi shart	Buxoro tarixiy markazi (1993, 260+ inshoot) Ipak yo'li segment (2023 transmilliy korridor)	To'liq mos	YUNESKO Jahon madaniy meros ro'yxati
Turizm oqimining o'rtacha darajasi (ortiqcha yukli emas)	ROI 0,5-2,0 oralig'ida: muvozanat zonasi	ROI = 0,72 (Muvozanat zonasi) Sayyoh ulushi: 9,3%	To'liq mos	§3.1 - ROI matritsasi
Institutsal ta'minot (universitet, ilmiy markaz)	Kamida 1 ta mahalliy ilmiy muassasa sheriklik uchun tayyor bo'lishi	Buxoro davlat universiteti (turizm kafedrası) Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	To'liq mos	Mintaqaviy infratuzilma ma'lumotlari
Mahalliy boshqaruv tayyor holati	Viloyat/shahar hokimligi tomonidan qo'llab-quvvatlash	Buxoro viloyat hokimligi Madaniy meros departamenti Meros DMO (3.1-reja takliflari bo'yicha)	To'liq mos	§3.1 - DMO tizimi

¹⁵ muallif tomonidan BMT turizm INSTO (2004) mezonlari tahlil natijalari asosida tuzilgan.

Monitoring uchun ma'lumotlar bazasi mavjudligi	BTRI yoki shunga o'xshash tizim bo'yicha boshlang'ich ma'lumot	BTRI metodologiyasi ishlab chiqilgan (2.3-reja) Resurs bali: 13/20 250 ta mehmonxona statistikasi	To'liq mos	§2.3 - BTRI metodologiya
Turizm sohasida aniq muammolar mavjudligi (monitoring zaruriyati)	Kamida 2 ta o'lchanadigan tizimli muammo bo'lishi	Xodimlar bo'shlig'i (114,6 ball) Mavsumiylik (bahor/kuz kontsentratsiyasi) Meros obyektlari yuklama nazorati yo'qligi	To'liq mos	§2.2 - to'siqlar tahlili

1-jadvaldan ko'rinadiki, Buxoro barcha 6 ta INSTO mezoniga to'liq javob beradi. Bizning tahlillarimiz allaqachon bu mezonlarni to'liq ta'minlab bergan. Demak, observatoriya uchun metodik tayyor holat mavjud.

Observatoriyaning maqsadi, vazifalari va tamoyillari

Buxoro barqaror turizm observatoriyasining bosh maqsadi Buxoro shahridagi turizm faoliyatini BTRI metodologiyasi asosida uzluksiz monitoring qilish, barqarorlik darajasini o'lchash va strategik qarorlarni ilmiy ma'lumotlar bilan ta'minlash bo'ladi. Bu maqsadga erishish uchun observatoriya 4 ta asosiy vazifani bajaradi.

Birinchi vazifa BTRI monitoring. 5 o'lcham (iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, institutsional, texnologik) va 20 ko'rsatkich bo'yicha Buxoro uchun maxsus ma'lumotlar to'plash va choraklik BTRI hisobotlarini tayyorlash. Hozirgi milliy BTRI darajasi ~0,38 (past daraja) ga nisbatan Buxoro bo'yicha viloyat kesimida aniqroq ko'rsatkich olish imkonini beradi. *Ikkinchi vazifa* meros obyektlari nazorati. YUNESKO konservatsiya talablariga muvofiq Buxoro tarixiy markazi va Ipak yo'li segmenti obyektlaridagi sayyoh oqimini va fizik ta'sir darajasini kuzatish. IJ3 ko'rsatkichi (meros obyektlari saqlanish indeksi) bo'yicha yillik ekspert baholashni tashkil etish. *Uchinchi vazifa* manfaatdorlar koordinatsiyasi. Taklif etilgan "Meros DMO", CBT jamoatlar, mehmonxonalar va xodimlar o'rtasida ma'lumot almashish platformasi vazifasini o'tash. *To'rtinchi vazifa* xalqaro integratsiya. BMT Turizm INSTO tarmog'i va YUNESKO bilan rasmiy ma'lumot almashish, O'zbekiston tajribasini xalqaro ilmiy muloqotga olib chiqishlarni bajaradi deb belgiladik.

Observatoriyaning tashkiliy tuzilmasining uch darajali model

INSTO tajribasi asosida observatoriyaning uch darajali boshqaruv tuzilmasi taklif etiladi. Bu tuzilma Italiya va Indoneziya observatoriyalarining muvaffaqiyatli modellarini O'zbekiston institutsional muhitiga moslashtirgan holda ishlab chiqilgan. Birinchi daraja (strategik boshqaruv) bo'lib, boshqaruv kengashi barcha asosiy manfaatdor tomonlar vakillari o'z ichiga oladi. Ikkinchi daraja (operatsion boshqaruv) ijroiya qo'mita bo'lib, 6 ta to'liq shtatli xodim. Uchinchi daraja (texnik guruhlar) 4 ta



ixtisoslashgan monitoring guruhi bo'lib, universitetlar bilan shartnoma asosida o'qituvchilar va mutaxassislar faoliyat olib boradi.

Buxoro barqaror turizm observatoriyasining tashkiliy-huquqiy asosini, INSTO mezonlariga muvofiqligi va uch darajali boshqaruv tuzilmasini belgilab oldik. Keyinda observatoriyaning kundalik faoliyatini ta'minlovchi 3 asosiy tizim ko'rib chiqamiz. 1) BTRI metodologiyasini Buxoro miqyosida tatbiq etish rejasi; 2) ma'lumotlar to'plash va choraklik monitoring sikli; 3) "Meros DMO", CBT jamoalar, mehmonxonalar va gidlar bilan hamkorlik mexanizmlari. Ushbu uch tizimni tushunish uchun muhim metodologik nuqtani ta'kidlash zarur. BTRI metodologiyasi ko'rib chiqqan bo'lsakda Buxoro bo'yicha haqiqiy boshlang'ich qiymatlar hali o'lchamadik. Bu kamchilik emas, balki observatoriyaning birinchi va eng muhim ilmiy vazifasi aynan shu bo'shliqni to'ldirish hisoblanadi.

Ko'rsatkichlar, manbalar va to'plash rejasi. O'zbekiston miqyosida ishlab chiqilgan BTRI metodologiyasi 5 o'lcham va 20 ko'rsatkich milliy darajada qo'llanilishga mo'ljallangan edi. Buxoro observatoriyasi uchun ushbu metodologiyani viloyat miqyosida birinchi marta tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tatbiq jarayonining asosiy metodologik muammosi milliy darajadagi bir qator ko'rsatkichlar uchun viloyat kesimidagi statistik ma'lumotlarni topish qiyinligida. Shu sababli Buxoro uchun BTRI tatbiqida 3 ta yondashuv qo'llaniladi. 1) to'g'ridan-to'g'ri tatbiq, ya'ni Buxoro bo'yicha aniq ma'lumot mavjud bo'lgan ko'rsatkichlar uchun (masalan, E3 mehmonxona band bo'lish koeffitsiyenti. 250 ta mehmonxona reestri asosida); hisoblash asosidagi baholash - milliy ma'lumotdan viloyat ulushini ajratish orqali (masalan, milliy ko'rsatkich va Buxoro ulushi asosida E4 - turizmda bandlik); ekspert baholash - miqdoriy o'lchash qiyin bo'lgan ko'rsatkichlar uchun (masalan, IJ3 - madaniy haqiqiylik indeksi. BuxDU ekspertlari va YUNESKO konservatsiya hisobotlari asosida).

Ma'lumotlar to'plash, monitoring va hisobot tizimi. Observatoriyaning monitoring tizimi 4 bosqichli sikl asosida ishlaydi. Bu sikl INSTO tarmog'ining eng yaxshi amaliyotlaridan olingan bo'lib, O'zbekiston turizm statistikasining mavjud tizimi Milliy statistika qo'mitasi yillik hisobotlari va Turizm qo'mitasining choraklik ma'lumotlariga moslashtiramiz. Hozirgi tizimda muammolar yillik statistik hisobotlar orqali 6-12 oydan so'ng aniqlanmoqda. Choraklik aylanma sikl esa ushbu vaqt bo'shlig'ini sezilarli qisqartirib, aniqlangan muammolarga tezkor choralar ko'rish imkonini beradi.

Birinchi bosqich - ma'lumot to'plash (1-oy): oylik avtomatlashtirilgan API (Sayohat.uz va mehmonxona booking tizimi integratsiyasi) va choraklik qo'lda to'plash (chiqish so'rovnomalari, ekspert panellari).

Ikkinchi bosqich - BTRI tahlil (2-oy): 20 ko'rsatkichni hisoblash, metodologiya asosida indekslarni normallashtirish va BTRI umumiy ballini aniqlash.





Uchinchi bosqich - hisobot tayyorlash (3-oy). Choraklik xulosa va yillik to'liq hisobot (dekabr), INSTO tarmog'iga uzatish va ma'lumotlarni barchaga ochiqlash.

To'rtinchi bosqich - qaror qabul qilish. Boshqaruv kengashi majlisi (yarim yillik) va "Meros DMO" operatsion tuzatishlar (har chorak).

Observatoriyaning hayotiyligi moliyaviy barqarorlikka bog'liq. Ko'pgina xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, observatoriyalar grantlar tugagach faoliyatini to'xtatadi. Shu xavfni bartaraf etish uchun Buxoro observatoriyasining moliyalashtirish tizimi ko'p manbali va bosqichli tarzda tashkil etilishini taklif etamiz. I bosqichda davlat va xalqaro grantlarga 85% tayanib, III bosqichda DXSH va xususiy sektor ulushini 40% ga yetkazish maqsad qilingan. Yillik umumiy xarajat ~1,93 mlrd so'm (~\$148-151 ming AQSH\$ ekvivalenti) ni tashkil etadi. Taqqoslash uchun moliyalashtirish modeli 3.1-rejada taklif etilgan Barqaror turizm yig'imi daromadining yillik 39,2 mln AQSH\$ 0,38% ini tashkil etadi, ya'ni observatoriya turizm sektori hosil qiladigan daromadga nisbatan minimal investitsiya deb qabul qilsak bo'ladi. 2-jadvalda xarajatlar, manbalar va samaradorlik ko'rsatkichlari jamlangan.

2-jadval

Moliyalashtirish manbalari, yillik xarajatlar va kutilayotgan samaradorlik ko'rsatkichlari¹⁶ (2026-2030)

Ko'rsatkich / yo'nalish	Birlik	I bosqich 2026-2027	II bosqich 2027-2029	III bosqich 2029-2030	Manbai
YILLIK XARAJATLAR					
II daraja xodimlari maoshi (6 xodim × 9 mln so'm/oy × 12)	mlrd so'm	0,648	0,648	0,648	Davlat 60% BuxDU 10% Grant 30%
III daraja xodimlari maoshi (12 xodim × 7 mln so'm/oy × 12)	mlrd so'm	1,008	1,008	1,008	Davlat 40% BuxDU 30% Grant 30%
Xodimlar jami (18 ta shtat)	mlrd so'm	1,656	1,656	1,656	II + III daraja yig'indisi
IT va Sayohat.uz integratsiya	mlrd so'm	0,15	0,08	0,06	BMTTD grant 60% Ax.tex. vaz. 40%

¹⁶ muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Monitoring va so'rovnomalar	mlrd so'm	0,08	0,10	0,12	JIF 50% Turizm qo'm. 50%
INSTO a'zolik to'lovi	mlrd so'm	0,04	0,04	0,05	Turizm qo'm. 100%
JAMI yillik xarajat	mlrd so'm	~1,93	~1,88	~1,89	~148-151 ming AQSH\$ ekvivalenti
MOLIYALASHTIRISH MANBALARI (ulush, %)					
Davlat budjeti (Turizm qo'mitasi + viloyat)	%	45%	35%	30%	Asosiy manba
Xalqaro grantlar (GEF, UNDP, BMT Turizm)	%	40%	35%	20%	INSTO a'zolik - grant imtiyozi
OTM (in-kind hissa)	%	10%	10%	10%	Kadrlar va infratuzilma
DXSH va xususi sektor (mehmonxonalar, operatorlar)	%	5%	20%	40%	O'sib boruvchi manba
KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK					
GSTC sertifikatlangan korxonalar (Buxoro)	ta	0 → 50	50 → 150	150 → 250+	GSTC imtiyoz tizimi
INSTO tarmog'iga integratsiya	bosqich	A'zolik arizasi	Rasmiy a'zolik	Yillik INSTO hisoboti	BMT Turizm, INSTO
BTRI birinchi o'lchov (boshlang'ich qiymat)	0-1 shkala	2026-yil 4-chorak: birinchi o'lchov	Dinamika kuzatiladi	2030 maqsad: 0,63+ (3.2-reja strategiyasi)	BTRI metodologiyasi

2-jadvaldan DXSH ulushining I bosqichdagi 5% dan III bosqichdagi 40% ga o'sishi GSTC sertifikatlash imtiyoz tizimi bilan bevosita bog'liq ekanligini xulosalash mumkin. Sertifikat olgan korxonalar o'z hissalarini observatoriya budjetiga kiritadilar. Bu ikkala mexanizmlarning o'zaro kuchaytiruvchan ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, BTRI birinchi o'lchovi 2026-yil 4-chorakda amalga oshirilishi 3.2-reja yo'l xaritasidagi I bosqichi

bilan muvofiqlashtirdik. Shu nuqtadan boshlab yillik BTRI dinamikasi kuzatiladi va 2030-yilga belgilangan 0,63+ maqsadga erishish yo'lida natijadorlik baholanadi.

Observatoriyaning strategik ta'siri uch yo'nalishda namoyon bo'ladi. BTRI monitoringi barqarorlik darajasini o'lchaydi. Bu investorlar uchun ishonchlilik belgisi bo'ladi, ya'ni investitsiyalar strategiyasini moliyalashtiradi va strategiya muvaffaqiyatga olib keladi. Buxoro modeli muvaffaqiyatli bo'lsa, ROI bo'yicha boshqa hududlarda ham Samarqand ($ROI=1,07$), Xiva ($ROI=0,56$), Nukus ($ROI=0,09$) monitoring bloklari tashkil etiladi. 2030-yilga 4 ta shaharda ishlaydigan observatoriya tarmog'i ishlab chiqilgan BTRIni haqiqiy amaliy boshqaruv vositasiga aylantiradi.

O'zbekistonda birinchi barqaror turizm observatoriyasini Buxoro shahrida tashkil etish ilmiy-amaliy jihatdan to'liq loyihalashtirib berildi. Buxoro barcha 6 ta BMT Turizm INSTO mezonga javob beradi. 2 ta YUNESKO obyekti, 250 ta mehmonxona, mavjud BTRI metodologiyasi va aniq tizimli muammolar shular jumalasidandir. Shunga mos ravishda uch darajali boshqaruv tuzilmasi, choraklik monitoring davriyligi va ko'p manbali moliyalashtirish modelini ishlab chiqildi. GSTC sertifikatlangan korxonalar 0 dan 250 ga yetkazish va 2030-yilga 4 ta shaharda monitoring tarmog'ini shakllantirish asosiy o'lchanadigan maqsadlar sifatida belgiladik. Shunday qilib, Buxoro barqaror turizm observatoriyasi tadqiqotning mantiqiy yakunlovchi bo'g'ini bo'lib, takomillashtiriladigan tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni ilmiy-amaliy jihatdan o'lchash va xalqaro miqyosda taqdim etish imkonini beradi.